Yo‘ldosheva Nazokat G‘ulomjonovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Fakultetlararo chet tillar” kafedrasi o‘qituvchisi; nazokatyuldasheva@urdu.uz)

LOYIHAGA ASOSLANGAN TA’LIM METODINING DARS JARAYONIDA QO‘LLANILISHI VA BUNDA PEDAGOGNING ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqola loyihaviy ta’lim tushunchasi hamda uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati haqida ma’lumot beradi va bu metodni qo‘llash jarayonida pedagogning roli qay daraja ekanligini yoritib beradi. Shuningdek, loyihaga asoslangan o‘qitish metodining samarodorligi, bu jarayonda o‘qituvchining o‘quvchilarga ta’siri haqida ma’lumotlar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *loyihaga asoslangan o‘qitish, metod, ta’lim jarayoni, pedagog.*

Йўлдашева Назокат Гуломжоновна (преподаватель межфакультетской кафедры иностранных языков, Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни; nazokatyuldasheva@urdu.uz)

ПРИМЕНЕНИЕ ПРОЕКТНОГО МЕТОДА ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ УРОКА И РОЛЬ ПЕДАГОГА

Аннотация. *В статье представлена информация о понятии метода проектного обучения и его значении в образовательном процессе, а также освещен уровень роли педагога в процессе применения этого метода. Также дается информация об эффективности метода PBL, влиянии преподавателя на учащихся в этом процессе.*

Ключевые слова: *проектное обучение, метод, образовательный процесс, преподаватель.*

Yuldasheva Nazokat Gulomjonovna (Lecturer, Department of Interfaculty of Foreign Languages, Urgenc State University named by Abu Raikhan Beruni Urgench, Khorezm, Uzbekistan; nazokatyuldasheva@urdu.uz)

THE USAGE OF THE PROJECT-BASED LEARNING METHOD DURING THE EDUCATION AND THE ROLE OF THE TEACHER

Annotation. *This article provides information about the concept of project- based learning method and its importance in the educational process and illuminates the level of the role of the pedagogue in the process of applying this method. Also, it gives information about the effectiveness of the PBL method, the influence of the teacher on the students in this process.*

Key words: *project-based learning, method, educational process, teacher.*

Kirish (Introduction) Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimini oshirish maqsadida turli xil metodlardan foydalanish hozirgi kunda zamon talabi hisoblanadi. Metodikada nima uchun (ta’lim maqsadi), nimani (ta’lim mazmunini), qanday qilib (ta’lim metodlari va prinsiplari asosida) hamda kimga (o‘quvchiga) o‘rgatish haqida ilmiy mulohazalar yuritiladi [1;9-b.]. Hozirgi kunda zamonaviy ta’lim metodlarining eng samaralilaridan biri loyiha asosida o‘rganish, ya’ni, Project- based learning (PBL) metodi bo‘lib, ushbu metod yordamida ma’lum muammoni hal qilish, yangi bilimga ega bo‘lish uchun mustaqil tarzda tadqiqot olib borish va izlanish katta ahamiyat kasb etadi. Dunyo bo‘ylab jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan integratsiyalashuv jarayoni va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamkorligi chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va intilishni yanada kuchaytirmoqda hamda ilmiy izlanishlar olib bora oladigan yuqori malakali tadqiqotchi kadrlar tayyorlashga talab oshmoqda. UNESCO va Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasi (International Association of Universities – IAU) dasturlarida talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, ta’lim jarayonini modellashtirish, loyiha asosida o‘qitish, integrativ yondashuvlar asosida ta’lim sifatini takomillashtirishga qaratilgan yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda [2;5-b.].

Ushbu maqolada “Project-based learning” (PBL) metodining ahamiyati, uning dars jarayonida qo‘llanilishi, izlanuvchilarning tadqiqot olib borishi, o‘quvchining faoliyati va pedagogning roli qay darajadaligi haqida tavsiflar keltirilgan. Ushbu ishning dolzarbligi bunda nafaqat o‘z ona tilidagi muammolar yechimlarini topish, balki chet tilida ham boshqa sohalarda ham bu metod orqali ta’lim sifatini yetarli darajada oshirish mumkin.

Ishning maqsadi – loyihaga asoslangan ta’limni dars jarayonida qo‘llash orqali o‘quvchini mustaqil ishlashga undash, bilimini amalda qo‘llay olishiga o‘rgatish, muayyan muammoni o‘zi mustaqil tarzda hal qila olishni o‘rgatish, o‘zini-o‘zi mustaqil tarzda boshqalar oldida boshqarishni va atrofdagilar bilan o‘ziga ishongan holda, muloqot qila olishini, ya’ni o‘quvchida ijtimoiy kommunikativlikni rivojlantirish.

Belgilangan maqsad quyidagi vazifalarni hal qilish zarurligini aniqlaydi:

– ijtimoiy muammo va hodisalarni o‘rganish va ularning yechimini topish;

– o‘quvchining bilimini, uning shaxsiy xislatlarini rivojlantirish;

– muammoni hal qilish jarayonida oldin mavjud bo‘lmagan yangilik yaratish.

Hozirgi davrda har bir sohada loyihaga asoslangan ta'lim metodini qo'llash izlanuvchilar uchun har tomonlama rivojlanish va ishning asl mohiyatini anglab yetish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xorijiy davlatlarda o'qitishni ilmiy va loyihaviy tadqiqotlar (Project based learning) asosida tashkil etish P.Jamping, M.Maher, J.Venning, D.O. Maksuel, H.Steygelmeyer, E.J.Sammers, D.Kranmer, J.Hatti, H.Polat, L.Lukas, V.V.Berg, D.K.Meyer, J. Raislbak, F.Stroller, N.A.Biryukova, R.R.Jordan, J.Uilson, M.Uilmore, S.Altun, L.Coruin, M.Galvan U. Moylan, D.Palmer, J.Rachal va boshqa xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida muhokama qilingan [3;6–7-b.]. Loyiha asosida o'qitish metodi kuchli o'qitish metodi bo'lib u quyidagilarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

•O'quvchilarni rag'batlantiradi.

•Talabalarni kelajakda shaxs sifatida tayyorlaydi.

• •Talabalardan chuqur bilim va fikrlash qobiliyatlarini namoyish etishni talab qiladigan topshiriqlarni yaxshi bajarishga yordam beradi.

•O'qituvchilarga yanada qoniqarli tarzda dars berish imkonini beradi.

• Maktablar va ota-onalar bilan, shuningdek, butun dunyo bilan bog'lanish, ya'ni muloqot qilishning yangi usullari bilan ta'minlaydi [4;2-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Loyiha asosida o'qitish metodini dars mobaynida qo'llash bir nechta jarayonni amalga oshirishni o'z ichiga oladi, ya'ni, o'quvchilar muammoni hal qilish uchun oldin kuzatish ishlarini olib boradilar. Ma'lumot yig'ib, tajriba orttiradilar va ba'zi hollarda boshqalarning ham fikriga intervyu qilish orqali ega bo'ladilar. Izlanish jarayonida barcha ma'lumotlarni mustaqil tarzda tahlil qilgan holda natijaga erishadilar va bu ularga ham amaliy jihatdan ham nazariy jihatdan kelgusida samaraliroq ishlashga imkon yaratadi. Shuningdek, izlanuvchilar ma'lumotlarni qayd etish jarayonida bir necha usullardan foydalanishlari mumkin. Bular quyidagilar.

Diagramma, sxema, grafik, jadval, xarita, fotosurat, audio va videomateriallar va boshqalar. Shuningdek, loyiha asosida o'qitish metodini qo'llash jarayonida pedagogning roli ham boshqa ta'lim metodlaridan farq qiladi. Loyihaga asoslangan ta'limning an'anaviy ta'limdan farqi shundaki, bunda o'qituvchi, asosan, yo'l ko'rsatuvchi rolida bo'ladi, ya'ni, u ma'lumot bermaydi, tushintirmaydi, dars mobaynida aktiv bo'lmaydi, uning roli passiv bo'ladi. O'qituvchi faqat muammoni hal qilish faoilyatini belgilab beradi, unga yo'l yo'riqlari bo'yicha ko'rsatma beradi. Shuningdek, o'qituvchi kuchli g'oyalar berib, o'quvchiga tayanch vazifani bajaradi va loyihani baholovchi rolida bo'ladi [5;17–18-b.]. Bu jarayonda pedagog qay darajada qatnashishi muhim emas, balki uning qay darajada ishni kuzatib yakunlovchi xulosani holisona berishi muhim. Chunki izlanuvchi o'zining kelajakdaki ishlariga ushbu xulosa asosida yondashadi va bu uning kelgusida samaraliroq ishlashga imkon yaratadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirda dars jarayonida o'quvchilarni yangilikga bo'lgan ishtiyoqini oshirish maqsadida turli xil metodlardan foydalanilmoqda. Loyihaga asoslangan ta'lim bu muammoni yechishga va izlanish jarayonida yangilik yaratishga asoslangan bo'lib, biz bu tadqiqotni olib borish jarayonida bu metod qay darajada darsni o'zlashtirishga yordam berishini muhokama qildik va bu yangi metod orqali har bir izlanuvchi mustaqil tadqiqoti natijasida yangi bilimga ega bo'lishi bilan birga, unda kreativlik qobilyati shakllanishi ham o'z natijasini ko'rsatdi.

Loyiha ta'lim texnologiyasi ta'limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirish imkonini beradi, shuningdek, nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog'laydi. Loyiha ustida ishlashning eng muhim tomoni bu taqdimot bo'lib, bunda muallif bajargan barcha ishlar, hosil qilingan tajriba va natijalar yoritiladi. Bu esa talabalarda muloqotchanlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, og'zaki taqdimotlar olib borish tadqiqotchilarga gapirish ko'nikmasini (speaking) yuqori darajada rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim metodlarining eng samaralilaridan biri loyiha asosida o'rganish ya'ni project-based learning (PBL) metodi bo'lib, bu metod orqali izlanuvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash orqali muayyan muammoni hal qilish imkoniga ega bo'ladilar va shu asosida oldin mavjud bo'lmagan foydali yangilik yarata oladilar. Kelgusida bu metodni dars jarayonida qo'llashda erishiladigan natijalar umumlashtirilib, keyingi tadqiqotlarimizda yanada kengroq yoritlishiga erishish ko'zlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Jalolov, J. Chet til o‘qitish metodikasi. “O‘qituvchi“, Toshkent, 2012, 9-bet.

(2). Xoliqova, L.F. Filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o‘rganish metodi orqali rivojlantirish. Samarqand, 2023, 5-bet.

(3). Xoliqova, L.F. Filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o‘rganish metodi orqali rivojlantirish. Samarqand, 2023, 6–7-betlar.

(4). Larmer, J., & Mergendoller, J. R.Setting the Standard for Project-Based Learning: A Proven Approach to Rigorous Classroom Instruction. 1703 N. Beauregard St. Alexandria, VA 22311-1714 USA (2015), p. 2.

(5). Fleming Douglas. S. A Teacher’s Guide to Project-Based Learning. AEL., Inc, Charleston, WV. Office of Educational Research and Improvement. Washington, DC, 2000 by AEL, p. 17–18.

Abdullayeva Saida Malikovna (JIDU Ingliz tili o‘qituvchisi)

CBI YONDASHUVINING CHET TILLARNI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqola OTM talabalarining ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ta’lim mazmuniga asoslangan o‘qitish (CBI) yondashuvini ishlatishning nazariy asoslari tadqiqotiga bag‘ishlangan. Tadqiqot doirasida CBI yondashuvini qo‘llash bo‘yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu yondashuvning kontekstli ta’lim va kontent va tilni integratsiyalab o‘rganish (CLIL) kabi boshqa yondashuvlar bilan o‘xshashlik va farqlari aniqlandi. Maqolada turli olimlarning qarashlari solishtirilib, CBI yondashuvi OTM talabalarining ingliz tilini o‘rganish samaradorligini oshirishdagi ahamayati ochib berildi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim mazmuniga asoslangan o‘qitish, kontent va tilni integratsiyalab o‘rganish, kontekstli ta’lim.*

Абдуллаева Саида Маликовна (преподаватель английского языка УМЭД)

ЗНАЧИМОСТЬ ПОДХОДА CBI В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена исследованию теоретических основ подхода Content Based Instruction (CBI), в развитии навыков общения на английском языке у студентов вузов. В рамках исследования был проведен анализ зарубежной и отечественной литературы по применению подхода CBI. Также были выявлены сходства и различия этого подхода с другими подходами, такими, как контекстное обучение и Content and language Integrated Learning (CLIL). В статье раскрывается значение подхода CBI в повышении эффективности изучения английского языка студентами вузов.*

Ключевые слова: *обучение с опорой на содержание, контентно-языковое интегрированное обучение, контекстное обучение.*

Abdullayeva Saida Malikovna (English Teacher, UWED)

THE SIGNIFICANCE OF CBI APPROACH FOR EFFECTIVE FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION

Annotation. *This article aims to research the theoretical foundations of the Content-Based Instruction (CBI) approach in developing English communication skills among university students. Within the scope of the research, foreign and local literature on the application of the CBI approach was analyzed, as well as the similarities and differences between this approach and other approaches, such as contextual learning and CLIL were identified. By comparing the views of various scholars, the article reveals the importance of the CBI approach in increasing the effectiveness of the English language acquisition among university students.*

Keywords: *Content Based Instruction (CBI), CLIL (Content and Language Integrated Learning), contextual learning.*

Kirish. Oliy ta’lim sharoitida xorijiy tillarni o‘rganish ahamiyati yildanyilga oshmoqda. Ayniqsa, bugungi kun globalizatsiya sharoitida ingliz tilining butun dunyo miqyosida olib boriladigan muloqotga ta’siri katta. Bu esa xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish uslublarining takomillashuviga turtki bo‘lmoqda. Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalari talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali usullaridan biri bu ta’lim mazmuniga asoslangan o‘qitish yondashuvidan foydalanishdir. Chet tili ushbu yondashuv doirasida tanlangan ixtisoslik fani mavzulari asosida o‘zlashtiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorijiy metodist olimlarning ishlariga murojaat qilinganida [1] xorijiy lingvodidaktikada ta’lim mazmuniga asoslangan o‘qitish yondashuvi keng muhokama qilingani-